IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 02 IYUL 2026

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TIL O‘RGANISH

Hazratova Sitora Shavkat qizi
Osiyo xalqaro universiteti magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.21452478

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ona tili va chet tili ko‘nikmalarini shakllantirishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy xorijiy va mahalliy tadqiqotlar asosida SI vositalarining so‘z boyligini oshirish, o‘qib tushunish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan ishlashda SI qo‘llashning didaktik va yosh xususiyatlariga oid cheklovlari, o‘qituvchining vositachilik roli va ta'lim jarayonini individuallashtirish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta'lim amaliyotchilari va metodistlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.
Kalit so‘zlar: sun'iy intellekt, boshlang‘ich ta'lim, til o‘rganish, adaptiv ta'lim, chatbot, individuallashtirilgan yondashuv, raqamli pedagogika, o‘quv motivatsiyasi.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические возможности использования технологий искусственного интеллекта (ИИ) в формировании навыков родного и иностранного языка у учащихся начальных классов. На основе современных зарубежных и отечественных исследований рассматривается роль инструментов ИИ в расширении словарного запаса, развитии навыков чтения, говорения и письма. В статье также освещаются дидактические и возрастные ограничения применения ИИ при работе с детьми младшего школьного возраста, посредническая роль учителя и возможности индивидуализации учебного процесса. Результаты исследования служат основой для разработки практических рекомендаций для практиков и методистов начального образования.
Ключевые слова: искусственный интеллект, начальное образование, изучение языка, адаптивное обучение, чат-бот, индивидуализированный подход, цифровая педагогика, учебная мотивация.

Abstract. This article examines the pedagogical potential of artificial intelligence (AI) technologies in developing native- and foreign-language skills among primary school pupils. Drawing on recent international and local research, it analyzes the role of AI tools in expanding vocabulary and developing reading comprehension, speaking, and writing skills. The article also addresses the didactic and age-related constraints of applying AI with young learners, the mediating role of the teacher, and opportunities for individualizing the learning process. The findings provide a basis for practical recommendations for primary-education practitioners and methodologists.
Keywords: artificial intelligence, primary education, language learning, adaptive learning, chatbot, individualized approach, digital pedagogy, learning motivation.

So‘nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimiga faol kirib kelishi til o‘qitish metodikasida yangi pedagogik imkoniyatlarni ochib bermoqda. Xususan, matnni tabiiy tilda qayta ishlash, nutqni tanish va sintez qilish, moslashuvchan (adaptiv) o‘quv platformalari kabi texnologiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining til ko‘nikmalarini shakllantirishda

o‘qituvchiga qo‘shimcha vosita sifatida xizmat qilish salohiyatiga ega. Вирoq bu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ko‘pincha oliy va o‘rta maxsus ta'lim bosqichlariga qaratilgan bo‘lib, boshlang‘ich ta'lim bosqichida sun'iy intellektni qo‘llash masalasi hali yetarlicha o‘rganilmagan.

Xalqaro tadqiqotchilar ta'kidlashicha, sun'iy intellekt asosidagi vositalarning boshlang‘ich va o‘rta ta'lim bosqichlaridagi qo‘llanilishi bo‘yicha empirik dalillar hali cheklangan bo‘lib, ko‘pgina amaliyotchilar bu vositalarni pedagogik nazariyaga asoslanmagan holda joriy etmoqda (Qiao va boshq., 2025).

Shu sababli mazkur maqolaning maqsadi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sun'iy intellekt yordamida til o‘rgatishning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish, mavjud xorijiy tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish hamda o‘zbek boshlang‘ich ta'limi sharoitida ushbu texnologiyalarni qo‘llashning amaliy yo‘nalishlarini belgilashdan iborat.

Sun'iy intellekt yordamida til o‘rgatish g‘oyasi yangi hodisa emas. Uning ildizlari 1950–1970-yillardagi qoidaga asoslangan (rule-based) kompyuter yordamida til o‘rgatish (Intelligent Computer-Assisted Language Learning – ICALL) tizimlariga borib taqaladi, ular grammatik qoidalar va xatolarni tuzatishga yo‘naltirilgan bixevioristik va kognitivistik yondashuvlarga tayangan. Biroq 2022-yildan boshlab yirik til modellarining ommalashuvi bu sohada tubdan yangi bosqichni boshlab berdi (Zhou va boshq., 2026).

Nazariy jihatdan sun'iy intellektning bolalar ta'limidagi salohiyatini L.S.Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi orqali izohlash mumkin: o‘quvchi mustaqil bajara oladigan va faqat yordam bilan bajara oladigan vazifalar orasidagi farqni bartaraf etishda unga yo‘naltirilgan qo‘llab-quvvatlash zarur bo‘ladi. Aynan shu nuqtada sun'iy intellekt vositalari individuallashtirilgan o‘qitish, moslashuvchan mashqlar va darhol qaytar aloqa berish orqali ushbu vazifani bajarishga qodir (Qiao va boshq., 2025).

Xorijiy amaliy tadqiqotlar sun'iy intellektning til ko‘nikmalarining har bir yo‘nalishiga ta'sirini alohida ko‘rsatib bergan. Xususan, Tayvan boshlang‘ich maktablarida o‘tkazilgan tadqiqotda sun'iy intellekt asosidagi ilovalardan foydalanish o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatgani aniqlangan (Liu va Chen, 2023). Janubiy Koreyada o‘tkazilgan tadqiqot ChatGPT'dan foydalanish o‘quvchilarga matnning asosiy g‘oyasini aniqlashda yordam berganini ko‘rsatgan (Kim, 2024). Gapirish ko‘nikmalari bo‘yicha Eron oliy ta'lim muassasasida o‘tkazilgan tadqiqot suhbat botlaridan foydalanish o‘quvchilarning nutq ravonligi, izchilligi va talaffuzini yaxshilaganini aniqlagan (Fathi va boshq., 2024). Yozish ko‘nikmalari borasida esa sun'iy intellektning darhol qaytar aloqa berish xususiyati o‘quvchilarda xavotirni kamaytirishga xizmat qilishi qayd etilgan (Biju va boshq., 2024).

Shu bilan birga, xalqaro ilmiy adabiyotlarda boshlang‘ich ta'lim bosqichiga oid tadqiqotlar tanqisligi alohida ta'kidlanadi: mavjud tizimli sharhlar ko‘rsatishicha, suhbat asosidagi sun'iy intellekt vositalari ko‘proq oliy ta'lim sharoitida sinovdan o‘tkazilgan, boshlang‘ich va o‘rta maktab sharoitida esa bu borada yetarli empirik asos shakllanmagan (Qiao va boshq., 2025). Bundan tashqari, kichik yoshdagi o‘quvchilarga to‘liq mustaqillik berilgan holda suhbat botlaridan foydalanishga ruxsat berilishi, ushbu vositalarning pedagoglar tomonidan emas, balki texnologik kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgani bois, samarasiz bo‘lishi mumkinligi haqida ogohlantirishlar mavjud (Qiao va boshq., 2025).

Sun'iy intellekt savodxonligi bo‘yicha tadqiqotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sun'iy intellektni o‘rganishga bo‘lgan munosabati va xatti-harakat niyatini o‘rganishga ham qaratilgan. Xitoy boshlang‘ich maktab o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilgan yirik miqyosli so‘rovnoma natijalari o‘quvchilarning o‘z-o‘ziga ishonchi, sun'iy intellektga tayyorligi va uni ijtimoiy foyda uchun qo‘llash haqidagi tasavvurlari ularning bu sohani o‘rganishga bo‘lgan niyatiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishini ko‘rsatgan (Chai va boshq., 2021).

Mazkur maqolada tavsiflovchi-tahliliy metod qo‘llanildi. Tadqiqot 2023–2026-yillarda nashr etilgan xalqaro ilmiy jurnallardagi tizimli sharhlar va empirik tadqiqotlarni tanlab tahlil

qilish (narrative review) usuliga asoslanadi. Manbalarni tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilindi: 1) manba boshlang‘ich yoki umumiy o‘rta ta'lim bosqichi bilan bog‘liqligi; 2) manbada sun'iy intellekt vositalarining til ko‘nikmalariga (lug‘at, o‘qish, gapirish, yozish) ta'siri o‘rganilgani; 3) manba taqrizlangan ilmiy jurnalda nashr etilgani. Tahlil natijalari boshlang‘ich ta'lim sharoitiga moslashtirilgan holda umumlashtirildi.

O‘tkazilgan tahlil asosida boshlang‘ich sinflarda sun'iy intellekt yordamida til o‘rgatishning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. Lug‘at boyligini oshirish. Sun'iy intellekt asosidagi ilovalar so‘zlarni tasvir, ovoz va o‘yin elementlari orqali taqdim etish imkonini beradi, bu esa kichik yoshdagi o‘quvchilarda so‘z boyligini samarali kengaytirishga xizmat qiladi (Liu va Chen, 2023). Bunday vositalar har bir o‘quvchining bilim darajasiga moslashgan holda takrorlash intervallarini avtomatik belgilash imkoniyatiga ega.

2. O‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Matn murakkabligini o‘quvchi saviyasiga moslab o‘zgartirish, savol-javob mashqlarini avtomatik yaratish va matnning asosiy g‘oyasini aniqlashda yordam berish orqali sun'iy intellekt o‘qib tushunish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi (Kim, 2024).

3. Gapirish ko‘nikmalarini mustahkamlash. Nutqni tanish texnologiyasiga asoslangan suhbat botlari o‘quvchilarga xatolikdan qo‘rqmagan holda tilda gapirish mashqini bajarish imkonini beradi, bu esa talaffuz va nutq ravonligini yaxshilashga xizmat qiladi (Fathi va boshq., 2024). Biroq boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bunday mashg‘ulotlar o‘qituvchi nazorati ostida tashkil etilishi zarur, chunki mavjud suhbat botlarining aksariyati ta'lim maqsadida emas, balki umumiy foydalanish uchun yaratilgan (Qiao va boshq., 2025).

4. Yozish ko‘nikmalarini shakllantirish. Sun'iy intellektning darhol qaytar aloqa berish xususiyati o‘quvchida imlo va grammatik xatolarni o‘z vaqtida aniqlash imkonini yaratadi, bu esa yozishga nisbatan xavotirni kamaytiradi (Biju va boshq., 2024). Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf sharoitida bu qaytar aloqa o‘quvchi tomonidan mustaqil emas, balki o‘qituvchi tushuntirishi bilan birga qabul qilinishi tavsiya etiladi.

5. Ta'limni individuallashtirish va motivatsiya. Adaptiv o‘quv tizimlari har bir o‘quvchining o‘zlashtirish sur'atiga moslashgan holda topshiriqlar darajasini o‘zgartiradi, bu Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasiga mos keladi (Qiao va boshq., 2025). Bundan tashqari, sun'iy intellektni o‘rganishga bo‘lgan ijobiy munosabat va unga tayyorlik o‘quvchining ta'lim jarayoniga faol jalb etilishini oshiradi (Chai va boshq., 2021).

Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda sun'iy intellekt qo‘llashning bir qator cheklovlarini ham hisobga olish zarur. Birinchidan, kichik yoshdagi bolalarning mustaqil qaror qabul qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, ular sun'iy intellekt tomonidan berilgan noto‘g‘ri yoki nomaqbul javoblarni tanqidiy baholay olmasligi mumkin. Ikkinchidan, ekrandan foydalanish vaqtini me'yorlashtirish, ma'lumotlar xavfsizligi va bolalar shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish masalalari alohida pedagogik e'tiborni talab qiladi. Uchinchidan, sun'iy intellekt o‘qituvchining o‘rnini bosuvchi emas, balki uni to‘ldiruvchi vosita sifatida qaralishi lozim – zamonaviy tadqiqotlar o‘qituvchining roli bilim uzatuvchidan o‘quvchining sun'iy intellekt bilan ishlashini yo‘naltiruvchi tashkilotchiga aylanib borayotganini ko‘rsatmoqda (Effectiveness of AI in language teaching, 2025).

O‘zbekiston boshlang‘ich ta'lim tizimi sharoitida ushbu xulosalarni qo‘llash uchun quyidagi amaliy yo‘nalishlar taklif etiladi: o‘quv dasturlariga sun'iy intellekt vositalaridan o‘qituvchi nazorati ostida foydalanish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalarni kiritish; o‘qituvchilar uchun sun'iy intellekt savodxonligini oshirish bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish; davlat tilida va milliy ta'lim standartlariga mos ravishda ishlab chiqilgan, yosh xususiyatlarini hisobga oluvchi mahalliy sun'iy intellekt asosidagi ta'lim resurslarini yaratish.

Xulosa

Sun'iy intellekt texnologiyalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida til ko‘nikmalarini shakllantirishda katta pedagogik salohiyatga ega bo‘lib, xususan lug‘at boyligini oshirish, o‘qib tushunish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali qo‘shimcha vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Biroq bu salohiyatni to‘liq amalga oshirish uchun ushbu vositalar pedagogik nazariyaga asoslangan holda, o‘qituvchining bevosita yo‘naltiruvchi ishtirokida va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy etilishi zarur. Boshlang‘ich ta'lim bosqichida sun'iy intellektni qo‘llash bo‘yicha empirik tadqiqotlarning yetishmasligi, xususan o‘zbek tilida olib boriladigan mahalliy tadqiqotlarning kamligi, ushbu yo‘nalishda kelgusi ilmiy izlanishlar uchun dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chai C.S., Lin P.-Y., Jong M.S.-Y., Dai Y., Chiu T.K.F., Qin J. Perceptions of and behavioral intentions towards learning artificial intelligence in primary school students // Educational Technology & Society. – 2021. – Vol. 24, No. 3. – P. 89–101.
2. Qiao Y. va boshq. Artificial Intelligence for Language Learning: A Systematic Review of its Design, Theoretical Foundations, Implementation, and Impact // International Journal of Applied Linguistics. – Wiley, 2025.
3. Zhou H. va boshq. Artificial Intelligence in Language Learning: A Twenty-Year Scoping Review of Applications, Research Methods, and Outcomes // Applied Linguistics Review. – 2026.
4. Effectiveness of Artificial Intelligence (AI) in language teaching // ScienceDirect. – 2025.
5. A critical review of teaching and learning artificial intelligence (AI) literacy: Developing an intelligence-based AI literacy framework for primary school education // ScienceDirect. – 2024.
6. Artificial intelligence literacy education in primary schools: a review // International Journal of Technology and Design Education. – Springer, 2025.
7. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.